



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MAZMUN-MOHIYATI


O'zbekiston davlatining huquqiy maqomi bo'yicha belgilangan normalar



Suveren



Huquqiy



Demokratik



Ijtimoiy va dunyoviy davlat

**INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI
qonunlar, davlat organlari va ular
mansabdor shaxslari faoliyatining
mazmun-mohiyatini belgilaydi**

20-MODDA.



“INSON-JAMIYAT-DAVLAT”

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

20-MODDA.





“INSON-JAMIYAT-DAVLAT”

Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sqinliksiz qaytish huquqiga ega.

Ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyiliga qaratilgan ijtimoiy davlat belgilari



Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

43-MODDA.



Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas.

47-MODDA.

TA'LIM Olish HUQUQI VA O'QITUVCHILAR – KONSTITUTSIYA HIMOYASIDA

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.



Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.



Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli.



HAR KIM TA'LIM Olish HUQUQIGA EGA.



Ta'lim olish huquqi va o'qituvchilar – Konstitutsiya himoyasida

Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

51-MODDA.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

52-MODDA.





Majburiy mehnat taqiqlanishining konstitutsiyaviy kafolatlari belgilandi

Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

44-MODDA.

Bozor mexanizmlari yanada rivojlantiriladi va xususiy mulk daxlsizligi kafolatlanadi

Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.




65-MODDA.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlariga oid eng muhim 5 ta kafolat:



Fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilishga oid normalar mustahkamlandi

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sirko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.



Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.



Davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.



Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va unitarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.



**Fuqarolik jamiyati institutlari
va ommaviy axborot
vositalariga oid normalar
yanada rivojlantirildi**

